



CHIQINDINI QAYTA ISHLASHNI BOSHQARISH

Abduraimov Axrorjon Anvarjonovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

huzuridagi Biznes va tadbirkorlik

oliy maktabi tinglovchisi

Tel: +998 91 129 37-37

E-pochta: Meriyabesharik@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada chiqindilarni boshqarish tizimining mohiyati, uning tarkibiy qismlari va dolzarb muammolari yoritilgan. Chiqindilarni to'plash, saralash, qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo'yicha mavjud tizim holati tahlil qilinib, bu sohadagi asosiy kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikka erishish yo'lida chiqindilarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar hamda takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: chiqindilarni boshqarish, qayta ishlash, ekologik xavfsizlik, utilizatsiya, chiqindi iqtisodiyoti, barqaror rivojlanish

Abstract: This article explores the essence of the waste management system, its structural components, and current challenges. It analyzes the state of waste collection, sorting, recycling, and disposal mechanisms, while identifying key shortcomings in the system. The article also presents prospective directions and recommendations for improving waste management in order to ensure environmental safety and economic efficiency.



Keywords: waste management, recycling, environmental safety, disposal, waste economy, sustainable development

Kirish. Mavzuning dolzarbligi. XXI asrda insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lgan sanoat va texnologik yutuqlar bilan birga global ekologik muammolar ham keskinlashib bormoqda. Shunday muammolardan biri — bu chiqindilarning ortib borishi va ularni to'g'ri boshqarish masalasidir. Aholi sonining ko'payishi, iste'mol darajasining oshishi, ishlab chiqarish hajmining ortishi va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida turli xil maishiy va sanoat chiqindilari miqdori tobora ko'paymoqda. Bu holat ekologik barqarorlikka, inson salomatligiga va tabiiy resurslar holatiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Chiqindilarni boshqarish, ayniqsa ularni qayta ishlash va iqtisodiy aylanishga qaytarish masalasi bugungi kunda global darajadagi eng dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon miqyosida "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida chiqindilarni kamaytirish, ulardan qayta foydalanish, energiya olish va ikkilamchi xom ashyo sifatida iqtisodiyotga qayta jalb etish bo'yicha ko'plab ilg'or tizimlar shakllangan. Bunday yondashuv nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi. Chiqindilarni boshqarish – bu faqatgina ularni yig'ish va yo'q qilish emas, balki ularni ilmiy asosda tasniflash, qayta ishlash, foydalanish darajasini aniqlash va ekologik xavfsizlik talablariga muvofiq tarzda boshqarishni nazarda tutadigan murakkab va ko'p bosqichli jarayondir. Bu jarayonda davlat boshqaruv organlari, mahalliy hokimiyatlar, xususiy sektor vakillari va fuqarolarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi ham ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni boshqarish tizimini zamon talablariga moslashtirish borasida izchil islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ayni paytda mamlakatimizda



chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha dastlabki infratuzilma yaratilgan, ma'lum qonunchilik bazasi shakllangan va yangi texnologiyalar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ushbu soha davlatimiz siyosatida ham o'z aksini topmoqda, xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.01.2024 yildagi "**Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida**"gi PF-5-son farmoni¹ ham qabul qilinganligi mavzuning dolzabr ekanligini bildiradi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy jamiyatda inson faoliyati natijasida hosil bo'ladigan chiqindilar hajmi va turlari tobora ortib bormoqda. Chiqindi — bu inson faoliyati yoki ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lib, o'zining asl maqsadi bo'yicha foydalanish qiymatini yo'qotgan, ammo ekologik yoki iqtisodiy nuqtayi nazardan qayta ishlanishi yoki yo'q qilinishi kerak bo'lgan moddiy qoldiqlardir. Chiqindilar tabiatga, inson salomatligiga va iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omil sifatida alohida e'tiborni talab qiladi. Chiqindilar turlicha manbalardan kelib chiqadi: uy xo'jaliklaridan chiqqan maishiy chiqindilar, sanoat va ishlab chiqarishdan hosil bo'lgan texnologik chiqindilar, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalaridagi foydalanilmagan yoki ishlatilgan moddalar chiqindi sifatida qaraladi. Ular kimyoviy tarkibi, xavflilik darajasi va parchalanish xususiyatiga qarab tasniflanadi. Xavfli chiqindilar — bu inson salomatligi yoki atrof-muhit uchun xavf tug'diradigan, tarkibida toksik, portlovchi, yondiruvchi yoki radioaktiv moddalari bo'lgan chiqindilardir. Xavfsiz chiqindilar esa qayta ishlash yoki utilizatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lgan, nisbatan kam zararli materiallardir. Shuningdek, chiqindilar ularning fizik holati bo'yicha ham tasniflanadi: qattiq, suyuq yoki gazsimon chiqindilar mavjud bo'lib, har bir tur uchun maxsus yig'ish, saqlash, tashish va utilizatsiya qilish uslublari qo'llaniladi. Bu tasnif chiqindilarni boshqarish strategiyasini ishlab

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.01.2024 yildagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5-son farmoni // <https://www.lex.uz/uz/docs/-6732832>



chiqishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, chiqindilarni saralash va alohida yig‘ish tizimlari orqali ularni qayta ishlashga yo‘naltirish ekologik barqarorlikka erishishda muhim ahamiyatga ega. Chiqindilarni to‘g‘ri tasniflash va tavsiflash ularning keyingi bosqichlardagi boshqaruvi — qayta ishlash, utilizatsiya qilish yoki energiyaga aylantirish imkoniyatlarini aniqlashda muhim omil sanaladi. Shu boisdan, chiqindilarni ilmiy asoslangan tasnifi va to‘g‘ri tavsifi zamonaviy chiqindi boshqaruvi tizimining ajralmas qismidir.

Chiqindilarni boshqarish, ayniqsa ularni qayta ishlash faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish uchun mustahkam huquqiy-me‘yoriy asoslarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Bu sohadagi har bir bosqich ekologik xavfsizlik, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy manfaatlar va ijtimoiy javobgarlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli, bu yo‘nalishdagi faoliyat davlat tomonidan qat’iy tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, chiqindilarni to‘g‘ri boshqarish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida bir qator muhim qonun hujjatlarini ishlab chiqdi. Jumladan, ushbu yo‘nalishda asosiy huquqiy hujjat — O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni² hisoblanadi. Mazkur qonunda chiqindilar bilan ishlash jarayonida atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik me‘yorlarga amal qilish talablari mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, ushbu faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa qonunlar ham mavjud bo‘lib, ulardan biri — O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 26 avgustdagi “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi Qonuni³ bo‘lib, unda chiqindilar bilan ishlashda sanitariya talablariga rioya qilish, salomatlikka salbiy ta‘sirlarning oldini olishga doir normalar belgilangan. Mazkur qonunlar bilan bir qatorda, sohada faoliyat yurituvchi

² O‘zbekiston Respublikasining 09.12.1992 yildagi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://lex.uz/ru/docs/-107115>

³ O‘zbekiston Respublikasining 26.08.2015 yildagi “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/-2732587>



jismoniy va yuridik shaxslarning majburiyatlari, javobgarlik choralari ham aniq belgilab berilgan.

Soha bo'yicha vakolatli davlat organi — O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi⁴ hisoblanadi. Ushbu vazirlik chiqindilarni boshqarish siyosatini shakllantirish, nazorat qilish, qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va ularning ijrosini ta'minlash bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalar faoliyati uchun litsenziya berish va texnik reglamentlarga rioya etilishini nazorat qilish ham ushbu vazirlik zimmasiga yuklatilgan. So'nggi yillarda chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash tizimini xalqaro tajriba asosida takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar kuchaymoqda. Jumladan, chiqindilarni saralashni bosqichma-bosqich joriy etish, qayta ishlash korxonalarini moliyaviy rag'batlantirish, aholini ekologik madaniyatga o'rgatish bo'yicha huquqiy asoslar kengaytirilmoqda. Bu borada chiqindilarni qayta ishlashni tartibga soluvchi qonunchilik xalqaro tamoyillar – masalan, “3R” (Reduce, Reuse, Recycle) modeliga yaqinlashtirilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, chiqindilarni qayta ishlashning huquqiy-me'yoriy asoslari nafaqat tartibga soluvchi vosita, balki barqaror ekologik rivojlanishni ta'minlovchi, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega muhim infratuzilmaviy omil sifatida xizmat qilmoqda.

Chiqindilarni qayta ishlash bugungi global ekologik va iqtisodiy muammolar fonida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Aholining o'sishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, sanoatning rivojlanishi natijasida chiqindilar hajmi tobora ortib bormoqda. Mazkur holat esa ularni to'g'ri boshqarish, ayniqsa, qayta ishlashni yo'lga qo'yishni ekologik va iqtisodiy zaruratga aylantiradi. Ekologik nuqtai nazardan qaralganda, chiqindilarni qayta ishlash atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, biologik xilma-xillikni asrash, atmosfera va yer resurslarini muhofaza qilishga xizmat qiladi. Poligonlarga olib

⁴ <https://www.uznature.uz/>



chiqilayotgan maishiy va ishlab chiqarish chiqindilarining miqdori kamayishi natijasida tuproq, suv va havo ifloslanishining oldi olinadi. Ayniqsa, plastik, simob, og‘ir metallar va boshqa xavfli moddalarning tabiatda uzoq saqlanishi va parchalanmasligi ularni qayta ishlash zaruratini yana-da kuchaytiradi.⁵ Bundan tashqari, chiqindilarni qayta ishlash orqali ko‘plab tabiiy resurslar asrab qolinishiga erishiladi. Masalan, qog‘ozni qayta ishlash orqali o‘rmonlar kesilishining oldi olinadi, metall chiqindilarni qayta eritish orqali konlardan yangi ruda qazib olish zarurati kamayadi. Bu esa tabiiy zaxiralarni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan esa, chiqindilarni qayta ishlash yangi ish o‘rinlarini yaratish, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, milliy iqtisodiyotga qo‘shimcha daromad manbalarini keltirib chiqarish imkonini beradi. Xususan, chiqindidan xom ashyo sifatida foydalanish korxonalar uchun mahsulot tannarxini pasaytiradi va resurslar bilan ta‘minlanishdagi tashqi qaramlikni kamaytiradi. Bunda energiya tejash ham muhim iqtisodiy omil hisoblanadi: ko‘pgina mahsulotlarni qayta ishlash ularni boshidan ishlab chiqarishga nisbatan kamroq energiya sarfini talab qiladi. Qayta ishlash sohasi investitsiyalar uchun ham jozibador yo‘nalish sanaladi. Davlat va xususiy sektorlar o‘rtasida sheriklik asosida chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini tashkil etish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin. Bundan tashqari, eksportbop ikkilamchi xomashyo mahsulotlarini ishlab chiqarish ham bu sohaga xalqaro miqyosda e‘tibor ortishiga sabab bo‘lmoqda.⁶ Chiqindilarni qayta ishlash — bu nafaqat ekologik muhofaza chorasidir, balki iqtisodiy foyda keltiruvchi, resurslarni asrab-avaylovchi va innovatsion yondashuvlarga asoslangan yangi iqtisodiyot turining asosiy qismi hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham bu sohaga davlat siyosatida alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 4 yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish

⁵ <https://cyberleninka.ru/article/n/chiqindilarni-qayta-ishlash-davr-talabi>

⁶ <https://yuz.uz/uz/news/chiqindilarni-qayta-ishlash-borasida-germaniya-bilan-hamkorlik-masalalari-muhokama-qilindi>



tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5-son Farmoni⁷ bilan mazkur yo'nalishda tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Chiqindilarni boshqarish tizimi bugungi ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish va sog'lom turmush muhitini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu tizimning asosiy vazifasi atrof-muhitga chiqarilayotgan chiqindilar hajmini kamaytirish, ularni to'g'ri yig'ish, tashish, vaqtincha saqlash, qayta ishlash va ekologik xavfsiz usullar orqali yo'q qilishdan iboratdir. Mazkur jarayonlar yagona tizim asosida tashkil etilishi va samarali boshqaruv mexanizmlari bilan ta'minlanishi zarur. Chiqindilarni boshqarish tizimi bir necha muhim funksiyalarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda chiqindining manbaida saralanishi muhim o'rin tutadi. Saralash orqali chiqindilarni biologik parchalanadigan, qayta ishlanadigan va xavfli turlarga ajratish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ularni samarali qayta ishlash va utilizatsiya qilishga zamin yaratadi. Tashish va saqlash bosqichlari ham maxsus texnika va muhofaza vositalarini talab qiladi, chunki ushbu jarayonlarda ekologik xavfsizlik eng ustuvor masala hisoblanadi. Ayniqsa, xavfli chiqindilar (simob, akkumulyator, dori qoldiqlari va boshqalar) bilan ishlashda alohida texnologiyalar va ruxsatnomalar talab qilinadi. Chiqindi boshqaruvi tizimining barqaror faoliyat yuritishi, avvalo, uni boshqaruvchi huquqiy, institutsional va iqtisodiy mexanizmlarning mavjudligi va uyg'un ishlashiga bog'liq. Bunda davlatning roli beqiyosdir. Qonunchilik darajasida chiqindilar bilan ishlash tartibi, ekologik standartlar, jarimalar, ruxsatnoma tartiblari va boshqa huquqiy me'yorlar belgilanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Ekologik kodeksi, "Maishiy chiqindilar to'g'risida"gi qonun va boshqa normativ hujjatlar ushbu sohani tartibga soladi. Davlat boshqaruvi tizimida bu yo'nalish uchun mas'ul bo'lgan vakolatli organ — Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hisoblanadi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.01.2024 yildagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5-son farmoni // <https://www.lex.uz/uz/docs/-6732832>



Ushbu vazirlik chiqindi klasterlarini tashkil etish, chiqindi poligonlarini inventarizatsiya qilish, monitoring va hisobot yuritish, tadbirkorlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatga ega. Moliyaviy mexanizmlar ham bu sohada muhim rol o'ynaydi. Chiqindilarni boshqarish xizmatlarining ko'pchiligi davlat buyurtmalari va subsidiyalari orqali moliyalashtiriladi. Shu bilan birga, xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish maqsadida chiqindi qayta ishlovchi korxonalarga soliq imtiyozlari, kredit yengilliklari va davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Qayta ishlangan mahsulotlardan iqtisodiy daromad olish, eksportga yo'naltirish orqali chiqindilar endilikda iqtisodiyotning muhim resursiga aylanishi mumkin bo'layapti. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari chiqindi sohasida axborot-kommunikatsion texnologiyalarni keng qo'llashni ham nazarda tutadi. Raqamli monitoring tizimlari, chiqindi harakatining onlayn kuzatuvi, GPS tizimiga ulangan maxsus transport vositalari va mobil ilovalar orqali aholidan chiqindilar to'g'risida axborot olish kabi mexanizmlar amaliyotda sinovdan o'tmoqda. Shuningdek, aholining ekologik ongini oshirish, chiqindilarni saralash bo'yicha keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur sohada davlat siyosati doirasida chuqur islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 4 yanvardagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5-son farmoni ushbu tizimni yangicha yondashuvlar asosida qayta tashkil etish, ekologik va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan kompleks choralarni belgilab berdi. Unga muvofiq, chiqindi boshqaruvi sohasida hududiy klasterlarni tashkil etish, qayta ishlash texnologiyalarini kengaytirish, statistik hisob va nazorat tizimini raqamlashtirish vazifalari belgilandi.

Chiqindilarni boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hozirgi zamonning eng dolzarb masalalaridan biridir. So'nggi yillarda urbanizatsiya, sanoatlashuv va iste'mol darajasining



o'sishi natijasida chiqindilar hajmi ortib bormoqda. Bu esa mavjud boshqaruv tizimining takomillashuvini taqozo etmoqda. Mazkur sohada islohotlar samaradorligi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.⁸ Chiqindi boshqaruvini takomillashtirish, avvalo, tizimga ilg'or yondashuvlarni joriy etish orqali amalga oshiriladi. Eng muhim yo'nalishlardan biri — chiqindilarni manbaida ajratib yig'ish va saralash tizimini joriy etishdir. Aholi, korxona va tashkilotlar tomonidan chiqindilarni turiga qarab ajratib topshirish, qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi va umumiy chiqindi hajmini kamaytiradi. Buning uchun yetarli miqdorda maxsus konteynerlar, logistik vositalar va saralovchi uskunalar bilan ta'minlash zarur.

Chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish ham muhim bosqichlardan biridir. Ayni vaqtda mavjud qayta ishlash korxonalari soni va texnik quvvatlari barcha chiqindilarni to'liq qamrab olish darajasida emas. Shu sababli, yangi texnologiyalarga asoslangan, zamonaviy, ekologik toza va iqtisodiy samarali qayta ishlash quvvatlarini barpo etish lozim. Xususan, plastik, shisha, metall va organik chiqindilarni qayta ishlovchi klasterlar, mikro zavodlar va logistik markazlar tashkil etilishi rejalashtirilishi kerak. Sohada iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali xususiy sektor ishtirokini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Chiqindi bilan ishlovchi tadbirkorlik subyektlariga soliq yengilliklari, davlat kafolatlari, imtiyozli kreditlar ajratilishi ularning ushbu yo'nalishda faoliyat olib borishini rag'batlantiradi. Shuningdek, "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyilini amalda qo'llash, ekologik to'lovlar va chiqindilar uchun tariflarni maqbullashtirish tizimni moliyaviy barqarorlashtiradi. Chiqindilarni boshqarishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rni ham ortib bormoqda. Raqamli platformalar, mobil ilovalar, sensorli monitoring tizimlari orqali chiqindilarni yig'ish, tashish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarini kuzatish, hisobotlarni yuritish imkoniyati yaratiladi. Bunday tizimlar korxonalarining mas'uliyatini oshiradi, hisobdorlikni kuchaytiradi va tizimda shaffoflikni

⁸ <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-qattiq-maishiy-chiqindilarni-qayta-ishlashning-huquqiy-asoslari>



ta'minlaydi. Yana bir muhim yo'nalish — aholi o'rtasida ekologik madaniyatni oshirish, chiqindi muammosiga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat. Buning uchun ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, maktab va oliy ta'lim tizimi orqali atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, chiqindilarni saralash, ularni kamaytirish bo'yicha muntazam tushuntirish ishlari olib borilishi zarur. Shuningdek, chiqindi klasterlari faoliyatini yaxshilash, hududlar kesimida kompleks chiqindi boshqaruv rejalari ishlab chiqish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, xalqaro tajriba va texnologiyalarni jalb etish, hamda mavjud qonunchilikni doimiy ravishda yangilab borish zaruratga aylangan.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston Respublikasi barqaror rivojlanish yo'lidan borar ekan, atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni samarali boshqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda chiqindilarni boshqarish sohasida qator ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsa-da, bu tizim hali to'liq ishlangan va kompleks yondashuv asosida tashkil etilgan deyish qiyin. Soha infratuzilmasining yetarli emasligi, qayta ishlash quvvatlarining kamligi, aholining ekologik madaniyat darajasining pastligi kabi omillar tizim samaradorligiga to'sqinlik qilmoqda. Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, chiqindilarni manbaida ajratib yig'ish tizimini keng joriy etish zarur. Buning uchun har bir mahalla, tashkilot va korxonada turli chiqindi turlarini ajratish imkonini beruvchi konteynerlar bilan ta'minlash va bu tartibni qat'iy nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish lozim.

Ikkinchidan, chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini kengaytirish maqsadida xususiy sektorga soliq va bojxona imtiyozlari berish, davlat-xususiy sheriklik asosida zamonaviy qayta ishlash korxonalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.



Uchinchidan, chiqindilarni boshqarishga oid axborot tizimlarini raqamlashtirish, chiqindilarning harakatini onlayn kuzatish imkonini beruvchi yagona elektron platformani yaratish zarur.

To‘rtinchidan, chiqindi bilan ishlashda xavfli turlar (meditsina, kimyoviy, elektron chiqindilar) uchun alohida standartlar ishlab chiqish va ularning utilizatsiyasini nazorat qilishni kuchaytirish lozim.

Beshinchidan, aholining ekologik madaniyatini oshirish maqsadida maktabgacha ta’limdan boshlab chiqindi madaniyatiga oid doimiy ta’lim va targ‘ibot dasturlarini yo‘lga qo‘yish zarur.

Oltinchidan, har bir tuman va shahar kesimida chiqindilarni boshqarishga doir alohida strategik reja ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta’minlash lozim.

Yettinchidan, xalqaro tajriba va innovatsion texnologiyalarni o‘rganish, ilg‘or mamlakatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali mahalliy chiqindi boshqaruv tizimini zamonaviy bosqichga olib chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5-son Farmoni.
2. Eshchanov R. R., Xodjayev N. B. “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
3. Komilov S. S. “O‘zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta’minlash muammolari”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.



4. Jo‘rayev A., Yusupov I. “Chiqindilarni qayta ishlash iqtisodiyoti: holat va istiqbollar”. – “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali, 2022, №3.
5. Mahmudov Z. “Barqaror rivojlanishda chiqindi boshqaruvi mexanizmlari”. – “Ilm-fan va taraqqiyot” jurnali, 2023, №1.
6. Rasulov M. “Chiqindi xo‘jaligini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari”. – Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Buxoro, 2022-yil.
7. Karimova D. “Ekologik xavfsizlikni ta’minlashda chiqindi qayta ishlash sohasining o‘rni”. – “Yosh olim” jurnali, 2023, №2.
8. UNDP Uzbekistan. “Solid Waste Management in Uzbekistan: Challenges and Opportunities”, 2022.
9. OECD (2023). Environmental Performance Review: Uzbekistan. Paris: OECD Publishing.